

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH  
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI PhD.18/2025.27.12.T.01.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH  
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**XALMURATOV BATIR XALBAY ULI**

**IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA OROLBO'YI HUDUDIDA  
QUM-CHANG BO'RONLARINING DAVOMIYLIGINI BASHORATLASH**

**11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish**

**TEXNIKA FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the of doctor of philosophy (PhD) on  
technical sciences**

**Xalmuratov Batir Xalbay uli**

Iqlim o'zgarishi sharoitida Orolbo'yi hududida qum-chang  
bo'ronlarining davomiyligini bashoratlash.....3

**Халмуратов Батыр Халбаевич**

Прогнозирование продолжительности песчано-пыльных бурь  
в регионе Приаралья в условиях изменения климата.....29

**Khalmuratov Batir Khalbay uli**

Prediction of the duration of dust and sand storms in the Aral Sea region  
under climate change conditions.....59

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....63

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH  
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI PhD.18/2025.27.12.T.01.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH  
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**XALMURATOV BATIR XALBAY ULI**

**IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA OROLBO'YI HUDUDIDA  
QUM-CHANG BO'RONLARINING DAVOMIYLIGINI BASHORATLASH**

**11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish**

**TEXNIKA FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.3.PhD/T414 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) institut veb sahifasi (ecoilm.uz, uznature.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Pulatov Baxtiyor Alimovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Sharipov Shavkat Muxamajanovich**  
geografiya fanlari doktori, professor

**G'afforov Husen Shirinovich**  
texnika fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi  
Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi 2026-yil "15" 06 sut 15<sup>00</sup> da Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutidagi PhD.18/2025.27.12.T.01.01 raqamli Ilmiy kengash yig'ilishida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111104, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Darxon qo'rg'oni, Chimkent yo'li ko'chasi, 2-uy. Aloqa ma'lumotlari: tel.: (77) 782-27-17; [eco\\_ilm@umail.uz](mailto:eco_ilm@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. Manzil: 111104, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Darxon qo'rg'oni, Chimkent yo'li ko'chasi, 2-uy. Aloqa ma'lumotlari: tel.: (77) 782-27-17; [eco\\_ilm@umail.uz](mailto:eco_ilm@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «08» 06 da tarqatildi.

(2026 - yil «08» 06 dagi 26/02 raqamli reyestr bayonnomasi).



**L. N. Samiyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy kotibi, t.f.d., dotsent.

**O. G. Ergashev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy kotibi, t.f.d., k.i.x.

**Sh. O. Muradov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda iqlim o'zgarishi sharoitida ekologik xavflarning kuchayishi, xususan qum-chang bo'ronlarining yuzaga kelishi va davomiyligini ilmiy asosda o'rganish hamda ularni bashoratlash uchun zamonaviy monitoring va modellashtirish usullarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida iqlim o'zgarishi natijasida qurg'oqchilikning kuchayishi, suv resurslarining qisqarishi va cho'llanish jarayonlarining jadallashuvi qum-chang bo'ronlarining takrorlanish chastotasi va davomiyligiga bevosita ta'sir ko'rsatayotganini inobatga olsak, Orolbo'yi hududida ushbu jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ularning davomiyligini bashoratlash dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalarini ekologik xavflarni kamaytirish, aholi salomatligini muhofaza qilish hamda hududiy barqaror rivojlanishni ta'minlashda amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan qum-chang bo'ronlarining davomiyligini aniqlash va bashoratlashda zamonaviy ilmiy yondashuvlar, matematik modellar hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda qum-chang bo'ronlari bilan bog'liq ekologik xavflarni kamaytirish, aholi salomatligini muhofaza qilish hamda iqlim o'zgarishi sharoitida barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida ushbu hodisalarning shakllanishi, tarqalishi va davomiyligini ilmiy asosda o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, qum-chang bo'ronlarini oldindan aniqlash va bashoratlashda meteorologik kuzatuvlar, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari hamda statistik va sun'iy intellektga asoslangan modellarni integratsiyalash orqali yuqori aniqlikdagi prognozlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, qum va chang bo'ronlarining davomiyligi va intensivligini baholashda vaqt qatorlari tahlili, mashinaviy o'rganish algoritmlari hamda gibrid yondashuvlardan foydalanish ilmiy-amaliy jihatdan samarali ekanligi ko'plab tadqiqotlar orqali isbotlangan. Ushbu yondashuvlar asosida qum-chang bo'ronlarining ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan prognozlash tizimlarini yaratish, ularni hududiy monitoring va erta ogohlantirish tizimlariga integratsiya qilish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda iqlim o'zgarishi sharoitida qum-chang bo'ronlari bilan bog'liq ekologik xavflarni kamaytirish hamda aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni olib borish va ularning natijalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirish, atmosfera havosi sifatini yaxshilash hamda aholi salomatligini muhofaza qilish bo'yicha vazifalar belgilangan<sup>1</sup>. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, Orolbo'yi hududida qum-chang bo'ronlari yuzaga kelishining takrorlanuvchanligi va davomiyligini kuzatuv ma'lumotlari asosida baholash, ularni asosiy meteorologik omillar bilan bog'liq holda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

etadi. Shuningdek, mazkur jarayonlarni zamonaviy monitoring vositalari, statistik hamda sun'iy intellektga asoslangan modellar yordamida prognozlash va olingan natijalarni ekologik monitoring hamda erta ogohlantirish tizimlariga joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2024-yil 24-sentabrdagi PQ-338-son "Chang bo'ronlariga qarshi kurashish va atmosfera havosini yaxshilash bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V- "Atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik va iqlim o'zgarishiga moslashuv" ustuvor yo'nalishiga to'liq mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Qum-chang bo'ronlarining shakllanish qonuniyatlari, emissiya manbalari, atmosfera bo'ylab tarqalish jarayonlari, meteorologik va sinoptik omillar bilan bog'liqligi, iqlim tizimiga ta'siri hamda ularni monitoring qilish, baholash va prognozlash masalalari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu yo'nalishdagi fundamental va amaliy tadqiqotlar J.Prosero, W.Wang, N.Mahowald, J.Kok, S.Tegen, H.Schepanski, C.Pérez G.Pando, P.Knippertz, M.Todd, R.Miller, I.Sokolik, S.Bauer, A.Silva, S.Solomos, A.Abueltgasim, Ch.Spyrou, A.Benedetti, J.Baldasano, M.Boroughani, S.Pourhashemi, S.Stavros, M.Sanisales, M.Schulz, Y.Shao, D.Jacob, B.Nishonov, N.Rakhmatova, L. Shardakova, A.Belikov, A.Rasulov, B.Eshchanov, N.Abdullaev, F.Hikmatov, B.Pulatov, Z.Alimov, Z.Mamatova, B.Tleumuratova, B.Islomov hamda boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Mazkur tadqiqotlarda qum-chang bo'ronlarining yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi tabiiy va antropogen omillar, chang aerozollarining fizik-kimyoviy xususiyatlari, atmosfera sirkulyatsiyasi bilan o'zaro aloqadorligi, uzoq masofalarga ko'chish mexanizmlari hamda ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari keng o'rganilgan. Shuningdek, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari, masofadan zondlash texnologiyalari, geografik axborot tizimlari va matematik modellashtirish usullaridan foydalangan holda qum-chang bo'ronlarini aniqlash, monitoring qilish va prognozlash bo'yicha turli yondashuvlar ishlab chiqilgan. Qum-chang bo'ronlarining intensivligi, takrorlanishi va davomiyligini baholash, ularning havo sifati, iqlim o'zgarishi, ekotizimlar va aholi salomatligiga ta'sirini aniqlash, shuningdek global va mintaqaviy miqyosdagi prognoz modellarini yaratish hamda takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Natijada qum-chang bo'ronlarini kuzatish, baholash va prognozlashning ilmiy-uslubiy asoslari shakllantirilgan hamda amaliyotda qo'llanilayotgan qator modellar va texnologiyalar yaratilgan. Shu bilan

birga, qum-chang bo‘ronlarining davomiyligini meteorologik omillar bilan uzviy bog‘liq holda kompleks baholash, sun‘iy intellekt va mashinali o‘qitish texnologiyalariga asoslangan gibril prognoz modellarini ishlab chiqish, prognoz natijalarining aniqligini oshirish hamda ularni ekologik monitoring va erta ogohlantirish tizimlariga integratsiya qilish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini belgilaydi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, ILM-202403110249 «Orolbo‘yi mintaqasi uchun chang bo‘ronlarining shakllanish sharoitlari va tarqalish mintaqalarini prognozlashtirish modelini ishlab chiqish» mavzusidagi 2024–2026-yillarga mo‘ljallangan maqsadli amaliy loyiha doirasida bajarildi.

**Tadqiqotning maqsadi** - Orolbo‘yi hududida qum-chang bo‘ronlarining shakllanishi va davomiyligini ularning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy meteorologik omillar bilan bog‘liq holda aniqlash, zamonaviy statistik va sun‘iy intellektga asoslangan yondashuvlar yordamida oldindan prognozlash hamda olingan natijalarni ekologik monitoring va erta ogohlantirish tizimlarida qo‘llashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari**

Qum-chang bo‘ronlarini kuzatish, baholash va bashoratlash bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar hamda ilgari bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish;

Orolbo‘yi hududida qum–chang bo‘ronlarining shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy meteorologik omillarni aniqlash;

Qum-chang bo‘ronlarining davomiyligini bashoratlash maqsadida statistik va sun‘iy intellektga asoslangan gibril yondashuvdan foydalanib modellashtirishni amalga oshirish;

Qo‘llanilgan modellashtirish yondashuvining asosiy parametrlari va ish samaradorligini nazariy hamda tajribaviy asoslash;

Bashorat natijalarining ishonchliligi va aniqligini turli statistik mezonlar asosida baholash.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Orolbo‘yi hududida yuzaga keladigan qum-chang bo‘ronlari va ularning shakllanishi hamda davomiyligini belgilovchi meteorologik jarayonlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida Orolbo‘yi hududida qum-chang bo‘ronlari hodisasining kuzatilishini belgilovchi meteorologik omillar o‘rtasidagi statistik bog‘lanishlar, ularni bashoratlashda qo‘llanilgan matematik modellar hamda prognoz natijalarining vaqt bo‘yicha o‘zgarish qonuniyatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida meteorologik kuzatuv ma’lumotlarini qayta ishlash va tahlil qilish usullari, matematik va statistik tahlil qoidalari, vaqt qatorlari asosida modellashtirish, regressiya va korrelyatsion tahlil usullari, qum–chang bo‘ronlarini bashoratlashda qo‘llaniladigan statistik va sun‘iy

intellektga asoslangan yondashuvlar, prognoz natijalarini baholash mezonlari (MSE, MAE, RMSE,  $R^2$ ), shuningdek mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan metodik usullardan foydalanilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Orolbo'yi hududida qum-chang bo'ronlarini qisqa muddatli prognozlashda meteorologik ma'lumotlarni statistik tahlil qilish, qayta ishlash va real vaqtga yaqin sharoitda operativ uzatishlarni inobatga olib to'liq avtomatlashtirilgan konseptual modeli ishlab chiqilgan;

Qum-chang bo'ronlarining yuzaga kelish sharoitlarini aniqlashda maksimal shamol tezligi, o'rtacha havo harorati, minimal nisbiy namlik va PCA orqali asosiy komponentlari va statistik hamda mashinaviy modellarni integratsiyalash orqali hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

Orolbo'yi hududida qum-chang bo'ronlarini prognozlash uchun SARIMA va XGBoost modellarini integratsiyalash orqali test segmentida ECE 0,078 dan 0,028 gacha, out-of-time segmentida 0,092 dan 0,034 gacha kamayishi hisobiga gibril prognoz modeli ishlab chiqilib, model prognozi aniqligi 78,8–93 % oshganligi isbotlangan;

Orolbo'yi hududi sharoitida qum-chang bo'ronlari hodisasini 7 kun oldindan qisqa muddatli bashorat qilish imkonini beruvchi, ilmiy asoslangan va foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan avtomatlashtirilgan (@Batir\_dusstorm\_orol\_bot) axborot-dasturiy tizim ishlab chiqilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Orolbo'yi hududi sharoitida qum-chang bo'ronlarini qisqa muddatli oldindan bashoratlash uchun avtomatlashtirilgan axborot-dasturiy tizimdan foydalanish imkoniyati yaratilgan;

aniqlangan asosiy meteorologik omillar va ularning ta'sir darajasidan ekologik monitoring hamda xavflarni baholash jarayonlarida foydalanish mumkinligi isbotlangan;

tadqiqotda qo'llanilgan bashoratlash yondashuvi natijalarining aniqligi 78.8 foiz bo'lib, modellarini gidrometeorologiya hamda ekologiya sohasidagi tashkilotlar amaliy faoliyatida qo'llash mumkinligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy statistik tahlil va modellashtirish usullaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, nazariy tahlil va amaliy kuzatuvlar natijalarining o'zaro adekvatligi, ko'p yillik meteorologik ma'lumotlar asosida bajarilgan hisob-kitoblar hamda qum-chang bo'ronlarini bashoratlashga qaratilgan modellashtirish natijalarining amaliyotda qo'llash imkoniyati bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Orolbo'yi hududi sharoitida qum-chang bo'ronlari bilan bog'liq meteorologik jarayonlarni tahlil qilish hamda ularni bashoratlashda qo'llanilgan yondashuvlarning ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalardan qum-chang bo'ronlarini qisqa muddatli bashoratlash, ekologik monitoring va xavflarni baholash

jarayonlarida hamda gidrometeorologiya va ekologiya sohasidagi tashkilotlar amaliy faoliyatida foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Iqlim o'zgarishi sharoitida Orolbo'yi hududida qum-chang bo'ronlarining davomiyligini bashoratlash natijalar asosida:

Orolbo'yi hududi uchun ishlab chiqilgan qum-chang bo'ronlarini qisqa muddatli prognozlashning to'liq avtomatlashtirilgan konseptual modeli real vaqtga yaqin sharoitda ma'lumotlarni operativ uzatish imkoniyatlarini inobatga olgan holda amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi 2025-yil 21-avgustdagi 02/08-182-2709-son ma'lumotnomasi). Natijada Orolbo'yi hududida qum-chang bo'ronlarini oldindan aniqlash va qisqa muddatli prognozlashning aniqligi hamda tezkorligi oshirilgan;

Orolbo'yi hududi uchun qum-chang bo'ronlari prognozining aniqligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan, maksimal shamol tezligi, o'rtacha havo harorati, minimal nisbiy namlik ko'rsatkichlari hamda PCA orqali aniqlangan asosiy komponentlar asosida statistik va mashinaviy modellarni integratsiyalashga yo'naltirilgan hisoblash usuli amaliyotga joriy etilgan. Mazkur usul Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining shimoliy tumanlari - Qo'ng'iroq va Mo'ynoq bo'limlari faoliyatiga tatbiq qilingan (2025-yil 21-avgustdagi 02/08-182-2709-son ma'lumotnoma). Natijada hududda qum-chang bo'ronlarini oldindan prognozlashning aniqligi oshirilib, soha mutaxassislari uchun tezkor va ishonchli prognozlash tizimidan keng miqyosda foydalanish imkoniyati yaratilgan;

Orolbo'yi hududida qum-chang bo'ronlarini prognozlash uchun ishlab chiqilgan SARIMA modeli va XGBoost modeli integratsiyasiga asoslangan gibrid prognoz modeli amaliyotga joriy etilgan. Mazkur model Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tizimida qo'llanilmoqda (2025-yil 21-avgustdagi 02/08-182-2709-son ma'lumotnoma). Natijada model prognozlash aniqligi 78,8–93 % gacha oshganligi qum-chang bo'ronlarini oldindan aniqlash, ularning xavf darajasini ishonchli baholash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyati yaratilgan.

Orolbo'yi hududi sharoitida qum-chang bo'ronlari hodisasini 7 kun oldindan qisqa muddatli bashorat qilish imkonini beruvchi, foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan avtomatlashtirilgan axborot-dasturiy tizim - *@Batir\_dusstorm\_orol\_bot* nomli teleqrambot tizimi amaliyotga joriy etilgan. Mazkur tizim Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tizimida qo'llanilmoqda (2025-yil 21-avgustdagi 02/08-182-2709-son ma'lumotnomasi). Natijada qum-chang bo'ronlarini 7 kun oldindan prognozlash, aholiga hamda soha mutaxassislariga tezkor va ishonchli axborot etkazish, shuningdek, favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan boshqaruv choralarini o'z vaqtida ko'rish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Dissertatsiyaning kirish qismida** tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo'lib, olib borilgan tadqiqotning asosiy maqsadi va masalalari ifodalanib, tadqiqotning obyekt va predmeti tavsiflangan. Respublikaning fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan.

Dissertatsiyaning «**Orolbo'yida qum-chang bo'ronlarining shakllanishi, ekologik oqibatlar va izlanishlar tahlili**» deb nomlangan **birinchi** bobida Orolbo'yi hududida qum-chang bo'ronlarining shakllanish jarayonlari, ularning ekologik xavfliligi va salbiy oqibatlar yoritilgan. Shuningdek, ushbu yo'nalishda olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar, mavjud baholash va bashoratlash modellari hamda ilmiy yondashuvlar tahlili keltirilgan. Jumladan qum-chang bo'ronlari hodisalarining Orolbo'yi hududida shakllanishiga ta'sir etuvchi tabiiy-geografik va meteorologik omillar, shuningdek ushbu hodisalarning ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy xavfliligi bo'yicha ilmiy manbalar asosida tahlili keltirilgan. Bobda Orol dengizi qurishi natijasida shakllangan Orolqum cho'li mintaqadagi asosiy deflyatsion hudud sifatida qaralib, uning sirt xususiyatlari qum va chang zarrachalarining ko'tarilishiga ta'siri nuqtai nazaridan baholanadi. Shamol rejimi, sirt namligi, yer qoplamining holati, vegetatsiya ko'rsatkichlari hamda kunlik va mavsumiy atmosfera jarayonlarining qum-chang bo'ronlari bilan bog'liqligi tahlil qilindi.

Hududda kuzatiladigan qum-chang bo'ronlarining diurnal va mavsumiy o'zgarish qonuniyatlari umumlantirilib, ularning yil davomida taqsimlanish xususiyatlari ilmiy adabiyotlar asosida yoritildi. Shuningdek, Ustyurt platosi va Qoraqalpog'istonning shimoliy qismidagi geomorfologik va aerodinamik sharoitlarning shamol tezligi va chang ko'tarilishi jarayonlariga ta'siri tahlil jihatdan ko'rib chiqildi.


Qum-chang bo'ron (keyingi o'rinlarda QChB) larini baholashda shamol tezligi, ko'rinish masofasi va optik so'nish koeffitsienti asosiy meteorologik mezonlar bo'lib, ushbu parametrlar bo'ronning kuchi, xavf darajasi va tarqalish sharoitlarini aniqlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Quyidagi 1-jadvalda qum-chang bo'ronlarini tasniflash uchun qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar va ularning operatsion talqinlari keltirilgan.

## Qum-chang bo‘ronini aniqlash uchun amaliy mezonlar

Holat	10 m shamol (o‘rt./gust)	Ko‘rinish V (km)	$\sigma_{ext} \approx 3.9/V$ (km <sup>-1</sup> )	Izoh / operatsion talqin
Ko‘tarilgan chang/qum	O‘rtacha < 12–15 m/s, Gust < 18–20 m/s	1–3	$\approx 1.3 - 3.9$	Uzoqdan adveksiya; mahalliy ko‘tarilish zaif
QChB (bo‘ron)	O‘rtacha $\geq 15-18$ m/s yoki Gust $\geq 20-22$ m/s	$\leq 1$	$\geq 3.9$	Mahalliy ko‘tarilish faol; transport xavfi yuqori
Kuchli QChB	O‘rtacha $\geq 20$ m/s yoki Gust $\geq 25$ m/s	$\leq 0.5$	$\geq 7.8$	Juda past ko‘rinish; tezkor choralar zarur


Jadvalda keltirilgan ostona qiymatlar amaliy kuzatuvlar asosida shakllangan tipik yo‘riqnomaga bo‘lib, Koschmieder munosabati  $V \approx 3.9/\sigma_{ext}$  orqali aniqlandi. Hududning shamol rejimi, sirt namligi va qo‘llanilayotgan sensor turlari farq qilganda bu chegaralar mos ravishda kalibrlandi. Yakuniy baholash sinoptik sharoit, aerazol (PM) ko‘rsatkichlari, mavsumiylik va xavf darajasini hisobga olgan holda amalga oshirildi.

Bobning muhim qismi sifatida qum-chang bo‘ronlarini bashoratlash bo‘yicha global, mintaqaviy va mahalliy ilmiy izlanishlarning hozirgi holati, qo‘llanilayotgan metodlar va ularning Orolbo‘yi sharoitiga mosligi tizimli o‘rganilgan. QChBlarni oldindan ogohlantirish zamonaviy yondashuvlari uch asosiy guruhga - dinamik modellar (WRF-Chem, CAMx), statistik-ehtimolliq usullar (SARIMA/SARIMAX, logistika va gradient boosting) hamda masofadan zondlash va ERA5 qayta tahliliga tayanadigan ma‘lumotga asoslangan (data-driven) yondashuvlarga ajratiladi. Sun‘iy yo‘ldosh ko‘rsatkichlari (AOD, NDVI/LAI, LST) va yer usti monitoringi (PM10/PM2.5) integratsiyasi QChBlarning vaqt-makon dinamikasini aniqlashda muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Bo‘ronlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik ta‘siri ko‘p qirrali ekani qayd etilib, transport va aviatsiya xavfi, energetika tarmoqlarining changlanishi, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligining kamayishi, tuproq degradatsiyasi, suv havzalarining sho‘rlanishi va aholi salomatligida respirator-kardiovaskulyar kasalliklarning ortishi kabi oqibatlar asoslab berilgan. Orolbo‘yi sharoitida Orolqum, qurigan deltalarning sho‘rxok maydonlari va deflyatsiya zonalarini changning uzoq masofalarga ko‘chishini kuchaytirishi ta‘kidlangan. Bo‘limda xalqaro olimlar L. Tegen, K. Knippertz, M. Todd, Y. Wang, M. Shao, Y. Shao, G. Stenchikov, Wang Tao va boshqalarning, shuningdek mintaqaviy va mahalliy tadqiqotchilar - N. Ravshanov, B.E. Nishonov, A. Rasulov, B. Eshchanov, A.R.Ahmedova, Z. Mamatova, N. Abdullaev, B. Tleumuratova, Belikov, Raxmatova va boshqa olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar asosida Orolbo‘yi ekologik tizimidagi o‘zgarishlar, gidrometeorologik jarayonlar hamda qum va chang emissiyasi bilan bog‘liq ilmiy manbalar tizimli ravishda umumlashtirilgan. Xalqaro tashkilotlar (WHO, UNEP, FAO, Jahon banki) ma‘lumotlariga tayangan holda QChBlar iqtisodiyotga yillik YAIMning 1-3 % gacha zarar yetkazishi keltirilgan. Bo‘lim yakunida global, mintaqaviy va lokal darajadagi tadqiqotlar ulushi taqsimoti 1-rasmda keltirilgan diagramma mavjud ilmiy tadqiqotlarning miqyos bo‘yicha taqsimotini yaqqol namoyon etadi.



**1-rasm. QChBlariga oid tadqiqotlar ilmiy adabiyotlarning global, mintaqaviy va mahalliy darajalarda taqsimlanishi.**

Bunda tadqiqotlarning 50 % global, 35 % mintaqaviy va atigi 15 % lokal darajadagi ishlarga to'g'ri keladi. Bu shundan dalolat beradiki, qum-chang bo'ronlari bo'yicha ilmiy izlanishlarning asosiy qismi umumglobal iqlim jarayonlari, atmosfera dinamikasi va transchegaraviy aerosol oqimlarini o'rganishga qaratilgan. Mintaqaviy darajadagi tadqiqotlar esa ma'lum bir geografik mintaq bilan chegaralangan bo'lib, baribir hududning o'ziga xos xususiyatlarini to'la qamrab ololmaydi. Qum-chang bo'ronlarini bashoratlash bo'yicha mahalliy darajadagi tadqiqotlar ulushi (15 %) juda kamligi Orolbo'yi kabi ekologik nozik hududlar uchun jiddiy ilmiy bo'shliq mavjudligini ko'rsatadi. Chunki qum-chang bo'ronlarining shakllanishi va davomiyligi mahalliy relyef, qurigan dengiz tubining tuzilishi, tuproq-suv rejimi, landshaftning buzilish darajasi, mahalliy shamol rejimi kabi omillar bilan chambarchas bog'liq. Global yoki mintaqaviy modellarda bu omillar odatda yiriklashtirilgan yoki soddalashtirilgan holda hisobga olinadi, natijada aniq prognozlar olish qiyinlashadi. 2-rasmda Orolbo'yi va unga tutash keng hududlarda kuzatilgan yirik qum-chang bo'ronining sun'iy yo'ldosh tasviri keltirilgan bo'lib, u bo'ron jarayonining miqyosi va tarqalish dinamikasini aniq aks ettiradi.



**2-rasm. QChBlari kuzatilgan vaqtdagi sun'iy yo'ldoshdan olingan tasviri.**


Tasvirdan ko'rinib turibdiki, chang massa oqimlari Orol dengizi atrofidagi qurigan maydonlardan ko'tarilgan holda Turkmaniston, Qoraqalpog'iston va O'zbekistonning shimoliy hududlari bo'ylab shimol-sharq yo'nalishida harakatlangan. Bu jarayon atmosfera oqimlarining kuchi va yo'nalishi qum-chang

bo‘ronlarining shakllanishi hamda ularning tarqalish masofasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Bo‘ron maydonining sun‘iy yo‘ldoshda aniq ko‘rinishi turli hududlarda ko‘rinuvchanlikning keskin pasayishi, transport va sog‘liq uchun xavfli sharoitlarning yuzaga kelganini ko‘rsatadi. Shuningdek, chang zarralari atmosfera qatlamlari orqali yuqori balandliklarga ko‘tarilib, uzoq masofalarga ko‘chishi kuzatilmoqda. Bu holat Orolbo‘yi uchun xos bo‘lgan ekologik xavfning faqat lokal emas, balki mintaqaviy va hatto transchegaraviy darajada ahamiyatga ega ekanini yana bir bor isbotlaydi.

Mazkur tasvir chang bo‘ronlarining shakllanish mexanizmlarini chuqur o‘rganish, ular uchun meteorologik omillarning ta‘sirini aniqlash va kelgusida aniq prognozlash modellarini yaratish zaruriyatini yanada kuchaytiradi. Bob yakunida Orolbo‘yida qum-chang bo‘ronlari shakllanishi, ularning ekologik xavflari, salomatlikka zararli oqibatlari va mavjud ilmiy izlanishlar tahlili ushbu mavzuning dolzarbligini yanada tasdiqlashi, shuningdek, keyingi boblarda SARIMA va XGBoost asosida gibrid prognozlash modelini ishlab chiqish uchun ilmiy zamin yaratishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot obyekti, metodologiyasi va materiallarning nazariy tahlili**» deb nomlangan **ikkinchi** bobida tadqiqotning obyekti va predmeti asoslanib, foydalanilgan ma‘lumotlar manbalari, kuzatuv materiallari hamda ilmiy-tadqiqot metodlari batafsil yoritilgan. Bobda qum-chang bo‘ronlarini baholash va prognozlashda qo‘llanilgan statistik, matematik hamda sun‘iy intellekt modellarining nazariy asoslari keltirilgan. Shuningdek, vaqt qatorlari tahlili, modellashtirish algoritmlari, prognoz natijalarini baholash mezonlari hamda ma‘lumotlarni qayta ishlash metodologiyasi bayon etilgan. Tadqiqotlar Orol dengizining qurigan tubiga eng yaqin va qum-chang bo‘ronlari yuqori chastotada kuzatiladigan Mo‘ynoq, Qo‘ng‘irot tumanlari hamda Nukus shahriga oid ma‘lumotlarga tayangan. Ushbu hududlarda shamol eroziyasi intensivligi, deflyatsion o‘choqlarning kengligi va vegetatsiya zichligining pastligi bo‘ronlar shakllanishi uchun qulay aeroekologik sharoit yaratishi aniqlangan (3-rasm).



**3-rasm. Tadqiqot obyektida tanlangan meteostansiyalar.**

Hududlar iqlimi keskin kontinental bo‘lib, yog‘ingarchilik juda kam (100–150 mm/yil), yozda harorat +45 °C gacha ba‘zi hollarda undan ham yuqoriroq ko‘tarilib, qishda o‘rtacha –5, 10 °C gacha pasayadi. Shamolning o‘rtacha yillik tezligi 4–6 m/s bo‘lsa, bo‘ronli kunlarda 15–20 m/s gacha va ba‘zida undan ham yuqori kechadi. Shamolning ustun yo‘nalishlari g‘arb va shimoli-g‘arb bo‘lib, bu Orolqum va Ustyurt platosidan chang ko‘chishini kuchaytiradi. Shu sababli Mazkur hududlar qum-chang bo‘ronlarining asosiy manbasi va tranzit zonasi hisoblanadi. Meteostansiyalar tomonidan qayd etilgan ko‘p yillik ma‘lumotlar bo‘ronlar chastotasi, davomiyligi va ularning meteorologik omillar bilan bog‘liqligini aniqlash imkonini beradi. Quyidagi 2-jadvalda tadqiqotda qo‘llanilgan birlamchi meteorologik ma‘lumotlarning standartlashtirilgan shaklini aks ettiradi. Nukus meteostansiyasi tomonidan WMO talablariga muvofiq qayd etiladigan kunlik kuzatuvlar (havo harorati, nisbiy namlik, shamolning o‘rtacha va maksimal zarbasi, ko‘rinuvchanlik, yog‘ingarchilik, sinoptik hodisalar va tuproq harorati) qum-chang bo‘ronlarining davomiyligi va intensivligini baholashda asosiy kirish ma‘lumotlari sifatida foydalanildi. Jadvalda keltirilgan parametrlar keyinchalik QC (sifat nazorati), xususiyatlar yaratish (lag/rolling), gibrid modellashtirish (SARIMAX + XGBoost) va epizodlarni verifikatsiya qilish jarayonlarida ishlatilgan bo‘lib, tadqiqotning barcha hisob-kitoblari aynan shu birlamchi kuzatuvlar bazasiga tayanadi.


Tadqiqotning ma‘lumot bazasi Nukus meteostansiyasining 2014–2023 yillardagi kunlik kuzatuvlari, shuningdek, Open-Meteo API orqali olingan 30 kunlik “backfill” va 7 kunlik prognoz ma‘lumotlaridan iborat. Stansiya o‘lchovlari harorat, nisbiy namlik, shamolning o‘rtacha va maksimal tezligi, yog‘ingarchilik, meteorologik ko‘rinish masofasi (MOR) va sinoptik hodisalar haqidagi WMO kodlari bilan birga qayd etilgan. Tuproq haroratining yuqori qatlam bo‘yicha kuzatuvlari ham jalb etilgan. Jadval ko‘rinishidagi birlamchi o‘lchov shakli 2-jadvalda keltirilgan.

## 2-Jadval.

### Tadqiqotda asosan foydalanilgan Hidrometeorologiya xizmati agentligining meteorologik ma‘lumotlar shakli.

Nukus meteostansiyasi																			
Date/Para meters	Air temperature			Air humidity		Wind speed			Meteorologica l visibility	Precipitation			Meteorological processes (day)					soil temperature	
	T aver age	T min	T max	f aver	f min	average	max	sharo'ha lishi		night	day	Summary	Rain	Snow	fog	dust storms	Dust storm	min	max
Unit of measur ement	(°C)	(°C)	(°C)	(%)	(%)	(m/s)	(m/s)	(°)	(m)	(m m)	(mm )	(m m)	(day)	(day)	(da y)	days	hours	(°C)	(°C)
24 05 18	23,1	14	30,5	25	9	4,8	11	70	2000							0		52	13
25 05 18	23,4	11,4	34,3	21	8	3,5	10	70	2000							0		55	11
26 05 18	26,7	13,3	37,5	25	11	2	7	110	2000							0		61	9
27 05 18	19,6	15,4	31,1	42	25	5,6	18	340	200		0.0	0.0	6			1	14	32	15
28 05 18	15,8	6,8	22,3	32	17	3	10	340	2000							1	3	49	7
29 05 18	18,7	7,5	28,1	33	12	2,6	12	110	1000							1	3	48	5
30 05 18	17,6	12,6	23,7	31	16	5	12	290	2000							1	2	48	12
31 05 18	20,5	15,2	28,4	29	15	3,1	11	45	2000							0		50	12

Qum–chang bo‘ronlarini prognozlashda sun‘iy intellekt texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanish masalalari ham yoritilgan bo‘lib, taklif etilgan gibrid model yondashuvning umumiy ishlash sxemasi 4-rasmda keltirilgan.



**4-rasm. Qum–chang bo‘ronlarini gibrid model asosida bashoratlash metodik sxemasi.**

Mazkur sxema asosida prognozlash jarayoni meteorologik kuzatuv ma'lumotlarini yig'ish, ularni sifat nazoratidan o'tkazish va tayyorlash, asosiy xususiyatlarni shakllantirish hamda SARIMA va XGBoost modellarini o'zida birlashtirgan gibrid modellashtirish bosqichlaridan iborat ekanligi ko'rsatilgan. XGBoost modelining nolinear bog'liqliklarni aniqlash qobiliyati, sinflar nomutanosibli sharoitida moslashuvchanligi va yuqori prognoz aniqligi alohida asoslab berilgan.

Modeldan olingan dastlabki ehtimollik qiymatlari isotonic regression usuli yordamida kalibrlanib, real kuzatilgan chastotalarga moslashtirilgan. Kalibrlangan ehtimollar 3 kunlik silliqlash jarayoni orqali barqarorlashtirilib, **yashil, sariq** va **qizil** xavf toifalariga ajratilgan holda operatsion foydalanish uchun moslashtirilgan. Ushbu yondashuv prognoz natijalari bilan amaliy ogohlantirish tizimi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni barqaror ta'minlaydi. Gibrid model natijalari SHAP tahlili va metodikasi yordamida izohlanib, qum–chang bo'ronlari kuzatilishida eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlangan. Jumladan, maksimal va zarba shamol tezliklari, minimal nisbiy namlik, vegetatsiya indeksining past qiymatlari (NDVI), so'nggi 7–30 kun davomida yog'ingarchilikning kuzatilgan yoki kuzatilmaganligi miqdori hamda chang potensial indeksi (DPI) asosiy omillar sifatida ajratib ko'rsatildi. Ushbu natijalar qum–chang bo'ronlarining shakllanishiga oid sinoptik va fizik mexanizmlar bilan mos keladi.

Ushbu modellashtirish yondashuvi vaqt qatorlari tahlili va ma'lumotlarga asoslangan mashinaviy o'rganish qonuniyatlariga tayangan bo'lib, unda qum-chang bo'ronlari hodisasining mavsumiyli va dinamikasi SARIMA modeli orqali, murakkab nolinear bog'liqliklar esa XGBoost modeli yordamida ifodalanadi. Gibrid yondashuv statistik va sun'iy intellekt modellari afzalliklarini birlashtirib, bashorat aniqligi va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.


Gibrid modellashtirishning umumiy matematik ifodasi quyidagicha beriladi:

$$y(t) = SARIMA(y(t-1), ...) + XGBoost(X(t)) + \varepsilon(t). \quad (1)$$

bu yerda:  $y(t)$  - qum-chang bo‘ronlari hodisasining  $t$ -vaqtdagi qiymati, SARIMA( $y(t-1)$ , ...) - vaqt qatorining chiziqli va mavsumiy komponentlarini ifodalovchi statistik model, XGBoost( $X(t)$ ) — meteorologik omillarning nolinear ta’sirini hisobga oluvchi sun’iy intellekt modeli,  $\varepsilon(t)$  esa tasodifiy xatolikni bildiradi.


Shunday qilib Orolbo‘yi sharoitida qum-chang bo‘ronlarini modellashtirish uchun zarur bo‘lgan hududiy, meteorologik, statistik va sun’iy intellektka asoslangan metodologiyaning to‘liq ilmiy asosini yaratadi va keyingi boblarda keltiriladigan prognozlash natijalari uchun puxta poydevor vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyaning «**Iqlimiy o‘zgarishlar fonida qum-chang bo‘ronlarini bashoratlashning tahliliy natijalari**» deb nomlangan **uchinchi** bobida Orolbo‘yi hududida iqlim ko‘rsatkichlarining uzoq muddatli o‘zgarish tendensiyalari hamda ularning qum-chang bo‘ronlarining shakllanishi va xavflilik darajasiga ta’siri tahlil qilingan. Qum-chang bo‘ronlarining hozirgi davrdagi chastotasi, davomiyligi va intensivligi asosiy meteorologik omillar bilan bog‘liq holda baholanib, statistik tahlil natijalari keltirilgan. Shuningdek, SARIMA va sun’iy intellektga asoslangan gibrid modellar yordamida olingan prognoz natijalari taqqoslab tahlil qilinib, ularning bashorat aniqligi va amaliy qo‘llash imkoniyatlari asoslab berilgan. 5-rasmda qum-chang bo‘ronlarining chastotasi va davomiyligi bilan asosiy meteorologik ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar aks ettirilgan. Korrelyatsiya matritsasi shamolning maksimal tezligi qum-chang bo‘ronlari davomiyligi bilan eng kuchli musbat bog‘lanishga ega ekanini ko‘rsatadi.




**5-rasm. QChB va meteorologik omillar o‘rtasidagi pearson korrelyatsiyasi.**


O‘rtacha nisbiy namlikning pasayishi bo‘ron xavfini oshirishi, yog‘ingarchilik esa qum-chang bo‘ron chastotasini pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lishi aniqlangan. Harorat o‘zgarishi shamol bilan teskari bog‘liq bo‘lgani uchun qum-chang bo‘ronlariga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Umuman, matritsa natijalari qum-chang bo‘ronlari shakllanishida shamol rejimi va sirtning quruqligi asosiy belgilovchi omillar ekanini tasdiqlaydi. Quyidagi 6-rasmda Orolbo‘yida qum-chang bo‘ronlari chastotasi bilan asosiy meteorologik omillar o‘rtasidagi bog‘lanishlar ko‘rsatilgan. Harorat, shamol tezligi, minimal harorat, yog‘ingarchilik va namlikning o‘zgarishi QChBlarning shakllanishiga qanday ta’sir qilishi regressiya chiziqlari orqali aks ettirilgan. Grafiklar bo‘ronlar chastotasi ko‘proq shamol kuchi va yuqori harorat sharoitida ortishini, yog‘ingarchilik esa aksincha kamaytirishini ko‘rsatadi.




a) Yillik harorat va chang bo‘ronlari chastotasi o‘rtasidagi bog‘liqlik



b) Shamol tezligi va QChB ehtimoli o‘rtasidagi bog‘liqlik




c) Shamol–namlik sharoitida chang bo‘roni ehtimoli




d) Min harorat – QChB va kun korrelyatsiyasi

## 6-rasm. Orolbo‘yi QChBlari chastotasi va asosiy meteorologik omillar o‘rtasidagi bog‘liqliklar.


Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, qum-chang bo‘ronlari chastotasi bir nechta asosiy meteorologik omillar bilan sezilarli darajada bog‘liq. Harorat oshishi bilan bo‘ronlar soni ortib borishi kuzatiladi, bu esa yer yuzasining yanada quruqlashishi va deflyatsiya potentsialining kuchayishi bilan izohlanadi. Shamol tezligi ham eng muhim drayver (harakatlantiruvchi omili) lardan biri bo‘lib, yuqori shamol sharoitida bo‘ronlar chastotasi keskin oshadi. Aksincha, yog‘ingarchilik ko‘payganda chang ko‘tarilishi kamayadi, chunki namlangan sirt zarrachalarning ko‘chishini cheklaydi. Shuningdek, minimal harorat va nisbiy namlikning past bo‘lishi bo‘ronlarning faollashuviga zamin yaratadi. Umuman olganda, grafiklar QChBlarning shakllanishi kuchli shamol, yuqori harorat va kam yog‘in sharoitida eng faol bo‘lishini tasdiqlaydi. Eng muhim drayverlardan biri bo‘lgan shamolni quyidagi rasmda ko‘ribchiqamiz.



a) Mo'ynoq



b) Qo'ng'iro't



c) Nukus

**7-rasm. Shamol impulsu (Gust, m/s) va qum-chang bo'roni davomiyligi (soat/kun) o'rtasidagi chiziqli bog'lanish (2014–2023).**


Yuqoridagi 7-rasmda Mo'ynoq (a), Qo'ng'iro't (b) va Nukus (c) meteostansiyalarida shamol impulsu (Gust, m/s) bilan qum-chang bo'roni davomiyligi (soat/kun) o'rtasidagi bog'liqliklar taqqoslab ko'rsatilgan. Har uchala grafikda ham abstsissada shamolning maksimal zarbasi, ordinatada esa kuzatilgan QChB davomiyligi keltirilgan bo'lib, ustiga chiziqli regressiya chizig'i va mos determinatsiya koeffitsienti ( $R^2$ ) qo'yilgan. Bu ko'rsatkichlar shamol impulsining bo'ron davomiyligini qanchalik "tushuntira olishi"ni baholash imkonini beradi. a) Mo'ynoq stansiyasida gust qiymatlari 0 dan 100 m/s gacha bo'lgan oraliqda o'zgarib, ayrim kunlarda bo'ron davomiyligi 3–4 soatgacha yetgan nuqtalar kuzatiladi. Regressiya chizig'i ijobiy yo'nalishga ega bo'lsa-da,  $R^2$  juda past bo'lib, shamol impulsining o'zi davomiylikni to'liq izohlab bera olmasligini ko'rsatadi. Biroq umumiy tendensiya kuchli shamol zarbalari bo'lgan kunlarda bo'ronning biroz cho'zilishga moyilligini bildiradi.

b) Qo'ng'iro't stansiyasida gust diapazoni 0–60 m/s atrofida bo'lib, aksariyat nuqtalar nisbatan qisqa davomiylik qiymatlarida jamlangan. Bu yerda regressiya chizig'i deyarli gorizontal bo'lib,  $R^2$  qiymati juda kichik. Bu esa Qo'ng'iro'tda shamol zarbasi bilan QChB davomiyligi o'rtasida kuchli chiziqli bog'liqlik yo'qligini, ehtimol, boshqa omillar (masalan, sirt namligi, manba zonaga masofa, sinoptik holat) muhimroq rol o'ynashini anglatadi.

c) Nukus stansiyasida ham shunga o'xshash holat kuzatiladi: gust qiymatlari nisbatan past diapazonda, bo'ron davomiyligi esa odatda 1 soatdan kam bo'lib,


nuqtalar pastki sohada to‘plangan. Regressiya chizig‘i deyarli tekis,  $R^2$  juda past. Bu Nukusda QChBlarning ko‘proq tranzit xarakterga ega ekanini, ya‘ni bo‘ronlar asosan boshqa hududlardan ko‘chib kelib, bu yerda qisqa muddatga ta‘sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Umuman, uchala grafik shamol impulsi zarur, ammo yetarli shart emasligini, QChB davomiyligini tushuntirishda kompleks meteorologik va sirt omillarini birgalikda hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi uchta rasm Orolbo‘yi hududida (Mo‘ynoq, Qo‘ng‘irot, Nukus) 2014–2024 yillar davrida asosiy iqlimiy ko‘rsatkichlar dinamikasini tizimli ravishda aks ettiradi va qum-chang bo‘ronlari shakllanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan fon sharoitni ilmiy asosda tavsiflash imkonini beradi. 8-rasmda esa 2014–2024 yillarda o‘rtacha yillik havo harorati o‘zgarishi grafigi keltirilgan.




**8-rasm. 2014–2024 yillarda o‘rtacha havo haroratining dinamikasi.**

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, barcha uchala hududda ham haroratda barqaror o‘shish tendensiyasi mavjud: dastlabki yillarda 11–12 °C atrofida bo‘lgan o‘rtacha yillik harorat keyingi yillarda 14–16 °C gacha ko‘tarilgan. Ayrim yillarda kichik pasayishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, umumiy trend ijobiy bo‘lib, iqlimning isishi jarayoni aniq namoyon bo‘ladi. Mo‘ynoq tumani, Orol dengizining sobiq qirg‘oqlariga eng yaqin hudud sifatida, ko‘pincha eng yuqori haroratlar bilan ajralib turadi; bu hududda yozgi ekstremal issiqliklar, yer sirtining tez qizishi va kuchli bug‘lanish deflyatsiya potentsialini yanada kuchaytiradi. Qo‘ng‘irot va Nukusda ham harorat oshishi qayd etilgan bo‘lib, bu mintaqa bo‘yicha umumiy isish fonida QChBlar uchun yanada qulay energiya sharoitlari shakllanayotganini ko‘rsatadi. 9-rasmda o‘rtacha nisbiy namlikning hududlar bo‘yicha 2014–2024 yillardagi dinamikasi tasvirlangan.



**9-rasm o‘rtacha nisbiy namlikning hududlar bo‘yicha dinamikasi.**

Grafikka ko‘ra, barcha stansiyalar kesimida nisbiy namlik 50–70 % oralig‘ida tebrangan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda ayrim hududlarda pastga qarab siljish tendensiyasi kuzatiladi. Mo‘ynoqda nisbiy namlik darajasi Nukus va Qo‘ng‘irotga nisbatan biroz pastroq bo‘lib, bu hududning yanada quruq iqlimga ega ekanligini tasdiqlaydi. Nisbiy namlikning pasayishi havo qatlamining quruqlashuviga, sirt namligining kamayishiga va natijada chang zarrachalarining havoga ko‘tarilish ehtimoli ortishiga olib keladi. Ayniqsa bahor–yoz oylarida namlikning pasayishi va haroratning ko‘tarilishi bir vaqtda sodir bo‘lganda, QChBlarning boshlanishi uchun optimal sharoitlar vujudga keladi. Namlik grafigi iqlimiy o‘zgarishlar fonida “quruqlashish trendi” mavjudligini ko‘rsatib, bu jarayon qum-chang bo‘ronlari xavfini kuchaytirayotganini ilmiy jihatdan asoslaydi. 10-rasmda esa 2014–2024 yillarda yillik yog‘ingarchilik miqdorining dinamikasi keltirilgan.




**10-rasm tahlili. 2014–2024 yillarda yillik yog‘ingarchilik dinamikasi.**

Diagrammadan ko‘rinadiki, davr boshida ayrim yillarda yog‘in miqdori nisbatan yuqori bo‘lgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda keskin pasayish kuzatiladi va bir qator yillarda yog‘in juda past darajalarda (50–100 mm/yil atrofida) saqlanib qolgan. Mo‘ynoq tumanida yog‘in eng kam miqdorda qayd etilgan bo‘lib, bu hududning ekstremal arid sharoitga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Qo‘ng‘irot va Nukusda ham yog‘in miqdorining kamayishi tendensiyasi kuzatiladi, ammo ayrim yillarda qisqa muddatli “sakrashlar” mavjud. Yog‘ingarchilikning umumiy pasayishi deflyatsion sirtlarning namlanish darajasini kamaytirib, tuproqning ustki qatlamini bo‘sh, chang ko‘tarilishiga moyil holatga olib keladi. Mavsumiy yog‘in rejimining buzilishi, ya‘ni bahor va kuzda yetarli namlanish bo‘lmasligi natijasida vegetatsiya qoplaminin siyraklashuvi va cho‘llanish jarayonlari jadallashadi.

Uchala rasm birgalikda tahlil qilinganda, Orolbo‘yi hududida 2014–2024-yillar davomida iqlimiy fonning quyidagi yo‘nalishda o‘zgarayotgani yaqqol ko‘rinadi: havo harorati ortib bormoqda, nisbiy namlik biroz pasayishga moyil, yillik yog‘in esa barqaror ravishda kamaymoqda. Bu uch omilning kombinatsiyasi mintaqada quruq, issiq va shamolli sharoitlarning ko‘payishiga, tuproq va sho‘rxok sirtlarning tez qurib qolishiga va natijada qum-chang bo‘ronlari ehtimolining ortishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, uchta rasmda iqlimiy o‘zgarishlar fonida QChBlarning kuchayib borayotgan xavfini ilmiy asoslashda muhim daliliy material bo‘lib, keyingi boblarda keltirilgan prognozlash natijalarini talqin qilish uchun zarur kontekstni ta‘minlaydi.

Endi quyidagi 11-rasmda QChB soatlari bilan havodagi mayda dispers zarralar - PM2.5 va PM10 konsentratsiyasi o'rtasidagi oylar kesimidagi dinamik bog'liqlik aks ettirilgan. Grafikdan ko'rinishicha, maydan noyabrgacha bo'lgan davrda PM10 qiymatlari keskin oshib boradi va kuz oylarida eng yuqori darajaga yetadi (sentabr–noyabrda 92–110 mkg/m<sup>3</sup>). Bu jarayon QChB soatlari ortishi bilan mos ravishda kuchayadi. PM2.5 qiymatlari JSST chegarasi (5 mkg/m<sup>3</sup>) dan bir necha baravar yuqori bo'lib, bu QChBlarning atmosfera sifati va inson salomatligiga salbiy ta'sirini tasdiqlaydi. Ushbu grafik qum-chang bo'ronlarining aerozol yuklamasini oshiruvchi asosiy omillardan biri ekanini ko'rsatadi.



**11-rasm. 2023-yilda Nukus shahrida QChB soatlari, PM2.5 va PM10 konsentratsiyasining oylik taqsimoti.**

Qum-chang bo'ronlari davomiyligi ortishi bilan PM2.5 va PM10 konsentratsiyalarining yil davomida qanday o'zgarishi aniq ko'rsatilgan. Kuz oylarida bo'ronlar soni ko'payishi bilan havodagi mayda dispers zarrachalar darajasi ham keskin oshib, JSST me'yorlaridan bir necha barobar yuqori qiymatlar qayd etiladi. Bu jarayon atmosfera sifatining pasayishi, ko'rinishchanlikning yomonlashuvi va aholining nafas olish tizimiga salbiy ta'sirning kuchayishi bilan kechadi. Grafik QChBlar mintaqada aerozol yuklamasining asosiy drayverlaridan biri ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.


3-jadvalda 2014–2023 yillarda Mo'ynoq, Nukus va Qo'ng'iro't hududlarida qum-chang bo'ronlarining chastotasi, oylik intensivligi va davomiyligi solishtirilgan.

**3-jadval.**

**QChB chastotasi, intensivligi va davomiyligining hududlar bo'yicha taqqoslanishi.**


Hududlar (2014–2023 yillar)	O'rtacha QChB kunlari/ yil	Oylik intensivlik (%)	Maksimal davomiylik (soat)	Eslatma
Moynoq	17–49 kun (2014–2023)	10–30%, ba'zida 25–30%	Asosan 1–2 soat	Eng ko'p QChB, lekin davomiyligi qisqa
